



OILAVIY QADRIYATLAR ASOSIDA BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASHNING AHAMIYATI

Jabborova Saodat Zoirovna

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada qadriyatlar, oilaviy qadriyatlar, ularning inson va jamiyat hayotidagi o'рни va ahamiyati, bolalarni axloqiy tarbiyalashda oilaviy qadriyat va munosabatlar, qadriyat darajalari, insonning qadr-qimmati, sha'ni, or-nomusi, milliy g'ururi milliy qadriyatlar bilan bevosita bog'liqligi, milliy qadriyatlar millatning ravnaqiga xizmat qilishi, oilada farzandlarni burchiga sadoqat ruhida tarbiyalash mas'uliyat, onglilik, vijdon kabi fazilatlar bilan chambarchas bog'liq ekanligi, bunda ota-onaning o'zaro samimiyati, farzandlari bilan yaqin, do'stona munosabatda bo'lishlarining ahamiyati, milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuvlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: qadriyat, oilaviy qadriyat, jamiyat, axloqiy tarbiya, qadriyat darajalari, qadr-qimmat, sha'n, or-nomus, milliy g'urur, millat ravnaqi, mas'uliyat, onglilik, vijdon, do'stona munosabat, yangicha, tizimli yondashuv.

Qadriyatlar inson va jamiyat hayotida o'z holicha emas, balki vujudga kelgan qadriyatlarga munosabatlar tizimi zaminida muhim o'rin egallagan holda ularning butun rang-barangligini uch asos:

- ijtimoiy hayot sohalariga;
- subyektlarga;
- qadriyatlarining jamiyat hayotidagi roliga ko'ra tasniflash mumkin.

Inson uchun eng oliy qadriyat bu qadriyat sifatidagi hayot, qadriyat sifatidagi sog'liq va qadriyat sifatidagi erkinlikdir.

XX-asrning boshida fransuz faylasufi P.Lapi Qadriyatlar nazariyasini yoritib berish maqsadida fanga "Aksiologiya"¹ yunon.axios - qadriyat, logos-fan, ta'limot atamasini kiritdi.

Qadriyatlar insonning hayot tarzini, uning hayvonot dunyosidan ajralishini tavsiflaydigan, odamlarni jipslashtirib, ularni hamjamiyatlarga birlashtiradigan, inson faoliyati va jamiyatning o'ziga xosligini teranroq anglash imkonini beradigan, uning dunyoga bo'lgan munosabatining alohida jihatini namoyon etib, dunyoga bo'lgan munosabatining alohida jihatini namoyon etadishan tushunchalar mazmunini birlashtiradigan omil hisoblanadi.

Jamiyat va inson hayotida qadriyatlarining roli quyidagicha darajalarga ajratiladi:

- ikkinchi darajali ahamiyatga ega qadriyatlar, ularsiz jamiyat va insonning normal faoliyati izdan chiqmaydi;

¹ Aksiologiya (yunoncha axio – qadriyat va logos – fan, ta'limot) – qadriyatshunoslik, ma'naviy hodisalardan biri bo'lgan qadriyatlar sohasini o'rganadigan, uning qonun va kategoriyalarini tadqiq qiladigan ilm yo'nalishi, qadriyatlar haqidagi fan.



- kundalik hayot va ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar – moddiy va ma'naviy qadriyatlar;
- oliy qadriyatlar eng yuksak darajada turuvchi, odamlarning fundamental munosabat va ehtiyojlarini o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda qadriyatlar bilan bog'liq muammolarni o'rganish yildan yilda avj olib bormoqda. Aniqroq qilib aytganimizda, qadriyatlar falsafasi shakllanmoqda. Bugungi kunda olimlarimiz qadriyatlar, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlarining mohiyati, o'zaro aloqasi, qadriyatlarining inson hayotida tutgan o'rni, ularning tarbiyaviy ta'siri hamda ta'lim va tarbiya jarayonida tarbiya vositasi sifatida qo'llash borasida ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

Hozirgi zamon sivilizasiyasi talablariga javob beruvchi umuminsoniy demokratik qadriyatlar xalqimiz turmush tarziga kirib kela boshladi. Inson haq-huquqlariga rioya qilish, tadbirkorlik erkinligi, matbuot erkinligi ana shular jumlasidandir. "Ushbu demokratik qadriyatlar jamiyatimiz uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida gapirar ekanmiz, bu qadriyatlar tarixiy jihatdan ham xalqimizning o'ziga xos xususiyatlariga zid emasligini qayta-qayta ta'kidlashni istardik». Shu bilan birga o'tmish qadriyatlariga, an'alariga va turmush tarziga betartib ravishda orqaketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin.

Har qanday qadriyat ham inson ongi va faoliyatining mahsulidir. Boshqacha aytganimizda, har qanday qadriyatlar ajdodlar tomonidan yaratiladi, ular yaratgan qadriyatlar boshqa avlodlar tomonidan o'zlashtiriladi, kishilarning ongi va shuuriga singib, amaliy faoliyatiga qudratli stimull beradi, katta ijtimoiy kuchga aylanadi.

Insonning qadr-qimmatini, sha'ni, or-nomusi, milliy g'ururi milliy qadriyatlar bilan bevosita bog'liq. Milliy qadriyatlar har bir kishining tili, dini, tarixi, adabiyoti, san'ati, rasm-rusmlari, urf-odatlarini, bayramu-sayillari, boshqacha aytganda madaniy-ma'naviy merosi, insoniy fazilatlarini, xislatlarining yig'indisidir. Milliy qadriyatlar o'sha millatga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan insoniylik, odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar, xosiyatlarni, milliy madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Milliy qadriyatlar millatning ravnaqi yoki inqirozi bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Boshqacha aytganimizda, milliy qadriyatlar millatning o'tmishi va buguni bilan bog'liq. Shuning uchun ham, «Milliy qadriyatlar millat rivojlanishi bilan rivojlanadi, inqirozga uchrashi bilan qadrsizlanadi. Shuning uchun ham, millat o'zining qadriyatlarini vujudga keltirib, ularning yangi-yangi qirralarini va jihatlarini sayqallashtirib, taraqqiyot jarayonida takomillashtirib turishi ma'nosida o'z qadriyatlarining haqiqiy egasi, makon va zamondagi ilgariylanma harakatdan iborat o'zgarishlar jarayonida ularni o'tmishdan kelajakka tomon yetkazib boradigan eng asosiy ob'ektdir»².

Milliy qadriyatlar millat yaratgan madaniy-ma'naviy merosni, xususan, millat kishilariga xos barcha insoniy fazilatlar, xislatlarni o'tmishdan bugunga yetkazadi. Shuning uchun ham milliy qadriyatlarini asrab-avaylashga har bir millatning o'zi mas'uldir. Har qanday sharoitda ham, chunonchi, biror millat ozod, farovon bo'lganda ham, qullik, tobelik iskanjasiga tushib qolganda ham, unda milliy qadriyatlarini saqlab qolish uchun ichki imkoniyat mavjud bo'ladi.

Har-birimiz o'g'il-qizimiz, oila a'zolarimizning imon-e'tiqodi, odob-axloqi va boshqa jihatlariga muntazam ahamiyat berib turishimiz kerak. Mo'min bandada ota-onasining haqqi bo'lganidek, farzandining ham haqqi bor.

² Nazarov Q. Aksiologik qadriyatlar falsafasi. Toshkent, 1998, 56-bet



Bola – ota-onasi huzuridagi omonat, uning qalbi pokiza gavhar. U har qanday naqshni qabul qilaveradi. Agar yaxshilikka o‘rgatilsa, tarbiyali farzand bo‘lib kamol topadi. Uning savobiga ota-onasi va murabbiyi sherik bo‘ladi. Agar yomonlikka odatlantirilsa, tarbiyasiz o‘sadi. Uning gunohi valiyisiga bo‘ladi. Tadqiqotlardan jinoyat ko‘chasiga kirganlar, bolaligida tarbiya ko‘rmagan va noqobil oila muhitida o‘sgani ma’lum bo‘lmoqda.

Bolaning tabiati besh yoshigacha shakllanadi. Bu davrda bola ota-ona quchog‘ida bo‘ladi. Noahil ota-onaning salbiy harakatlari bola fitratiga muhrlanadi. Ota-ona shunday andoza maktabi bo‘lsinki, o‘g‘il: “Katta bo‘lsam, otamdek inson bo‘laman”, qiz esa: “Onamdek ayol bo‘laman”, desin.

Farzandlar ko‘z o‘ngida ota-onaning noloyiq harakati sodir bo‘lmasin. “Eng yaxshi odam kim?” deganda, “Mening otam va onam”, desin.

Demak, ota-onalar farzandiga go‘zal ta‘lim-tarbiya bermog‘i lozim. Uni yomon bolalardan saqlasin. Ne‘matlarga qiziqishga odatlantirmasin. Uni zeb-ziynatga ruju qo‘yishga havaslantirmasin. Toki, katta bo‘lganda zeb-ziynat ortidan yurib, umrini zoye ketkazmasin.

Ota-ona bolani kichikligidan, umrining ilk kunlaridan ehtiyotkorlik bilan kuzatib borishi kerak. Bolada dastlab taomga o‘chlik paydo bo‘ladi. Shuning uchun ota-ona unga ovqatlanish odoblarini o‘rgatsin. Ba‘zi vaqtlarda faqat non yeyish taomilini shakllantirsin. Toki nonga boshqa narsani qo‘shib yemoq lozim, degan xayolga bormasin.

Bola tarbiyasida ota-onaning o‘zaro muomalasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bola ota-onasi bilan faxrlanishi, ulardan ibrat olishi, ularni qumsab turishi lozim. Lekin agar bola ota-ona va murabbiy tomonidan qo‘pol, dag‘al so‘zlar eshitib, kaltak yeb katta bo‘lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta‘sir qiladi. Tanbeh va dashnom bola ruhiyatini so‘ndirib, ota-onaga, xonadoniga mehrini yo‘q qiladi. U ota-onadan uzoq yurishni xohlab qoladi. Biror ishni yashirin qilishga intiladi. Uyidan uzoqlarda bo‘lishni istaydi. Chunki shu uy uni dashnom botqog‘iga botirgan. Xohish-istaklari bilan hisoblashmagan. Xonadonidan huzur topmagan har bir insonning fikri, zikri yoxud qadami buziladi.

Qaysi xonadonda ilm-ma‘rifat bo‘lsa, shu xonadonda xotirjamlik bor. Alloh taolo Qur‘oni karimda avvalidan oxiriga qadar insonlarga tarbiya va odob o‘rgatadi. Dinimiz odob va tarbiyani savob, tarbiyasizlikni gunoh hisoblaydi. Bir kishi Umar roziyallohu anhunging huzurlariga kelib, o‘g‘lini oq etganini shikoyat qildi. Hazrati Umar roziyallohu anhu o‘g‘ilni chaqirtirib: “Otangga oq bo‘lishlikda Allohdan qo‘rqmaysanmi? Otang haqqini poymol qilbsan”, dedi. O‘g‘il aytdi: “Ey mo‘minlar amiri! O‘g‘ilning otada haqqi yo‘qmi?” Hazrati Umar: “Ha, bor!” dedilar. O‘g‘il aytdi: “Nima u haqlar?” Hazrati Umar: “O‘g‘ilning otadagi haqqi – ota yomon xotinga uylanmasligi, shu bilan farzand ayblanmasligi uchun yaxshi ism qo‘ymog‘i va Qur‘onni o‘rgatmog‘idir”, dedi. O‘g‘il: “Ey mo‘minlar amiri, Allohga qasamki, otam onamni tanlab olmagan, u majusiy edi, uni to‘rt yuz dirhamga sotib olgan. Ismimni chiroyli qo‘ymadi, ya‘ni, menga Ju‘al deb ism qo‘ydi (ko‘rshapalak erkagining ismi), Allohning oyatlaridan birontasini ham o‘rgatmadi”, dedi.

Bunday rivoyatlar har bir insonni sergak qiladi. Mas‘ullik hissini oshiradi. Farzandlari kamolotini orzu qilgan har bir ota-ona, ularga o‘zlari o‘rnak bo‘lishi kerak.

Oilaviy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalashda inson, avvalo, o‘zi юксак маънавият эгаси бўлмоғи лозим. Aks holda, ota-ona farzandlarida go‘zal axloq shakllanishiga muvaffaq bo‘la olmaydi.



Oilada bola tarbiyasiga yoshlikdan singdirilgan sifatlarning ahamiyati muhim. Shu o'rinda: "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan hikmatni eslab o'tish joizdir. Ota-ona shaxsi, ularning hayot tarzi va obro'- e'tibori bola tarbiyasiga ta'sir etadi. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) o'z hadislarida: "Farzand ota-onaning siri", deganlar.

Oilada farzandlarni burchiga sadoqat ruhida tarbiyalash mas'uliyat, onglilik, vijdon kabi fazilatlar bilan chambarchas bog'liq. Bunda ota-onaning o'zaro samimiyati, farzandlari bilan yaqin, do'stona munosabatda bo'lishlari, orzu-maqсадlarini tushunib olishlari, zurriyotlari sog'-salomat voyaga yetishlari uchun asos bo'ladi.

Oilada o'g'il farzand tug'ilganda avlodlar davomchisi, oila qo'rg'oni, yurt tayanchi, Vatan himoyachisi dunyoga kelgani vasf etilgan, o'g'il tuqqan ayolning ham hurmati oshgan. Ulg'ayib uylangach, jufti haloli unga itoatda, farzandlari hurmatda bo'lgan. Ota atalmish qo'rg'oni bor oila hayotning har qanday sinovlari oldida to'zimagan, balki toblangan. Ota bosh bo'lgan oilada o'sgan yigit or-nomusli, sheryurak, o'quvli, mehribon, shijoatli, qiz bola esa hayoli, muomalali, oila, chaqqon, beg'ubor, samimiy, to'g'riso'z bo'lib tarbiyalangan. Payg'ambarimiz (s.a.v.) sahobalarga qarab: "Alloh nazdida sizlarning eng yaxshilaringiz ahli ayoliga yaxshilaringizdir", deganlari rivoyat qilinadi. Bundan ko'rinib turibdiki, oilasiga sadoqat, farzand tarbiyasiga mas'uliyat bilan qaragan ota Allohning suygan bandasi hisoblanar ekan.

Oilaviy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqining milliy qadriyatlarining yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda imkoniyatlari katta. O'zbek xalqining milliy qadriyatlarida oilada bolalarning fikrlash qobiliyati etarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, ularning ota-ona, qarindoshlari, qo'shnilari o'z tajribalaridan kelib chiqib, ularga har-hil o'yinlarni o'ynagan. Aqlni rivojlantiruvchi xalq o'yinlarida bolalarning hayotiy bilimlarini mustahkamlashga erishiladi. Bolalar bunday nazorat orqali ko'pgina ko'nikma va tushunchalarga ega bo'lishadi. Natijada, o'zlari mustaqil ravishda abstrakt fikr yurgizib xulosa chiqarishga o'rganadi.

Oilaviy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash masalalari Sharq allomalarining ilmiy merosida shaxsning kamolotga yetishi, sog'lom shakllanishi, unga to'g'ri ta'lim-tarbiya berish, shuningdek, shaxsning sog'lom xulq-atvor fazilatlariga ega bo'lib, ezgu va sog'lom g'oya hamda mafkura asosida o'z yo'lidan adashmay o'z hayotini qurishi lozimligi haqida juda qimmatli fikr-mulohazalarni uchratish mumkin. Muqaddas "Qur'oni Karim"da, "Hadisi Sharif"da, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Unsurulmaoliy Kaykovus, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy va Husayn Voiz Koshifiy kabi allomalarimizning asarlarida ham shaxs kamoloti, go'zal xulqli insonning chiroyli fazilatlarini, ezgulikka va bunyodkorlikka yo'g'rilgan g'oya va mafkuralar asosida yomondan, yomon ishlardan hazar qilish, yomon ishlar qilguvchilarni to'g'ri yo'lga solish, sog'lom bo'lmagan xulq egalarini Olloh ham, zamon ham, jamiyat ham kechirmasligi bois, shaxsni kelajakda har xil yomon, yovuz yo'llar, buzg'unchi fikr va g'oyalarga chalinmasligi uchun barkamol qilib tarbiyalash yuzasidan qimmatli fikrlarni ilgari surganlar.

Bugungi kunda milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini o'rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etayotganligi oilaviy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir zamon va makonda shakllanayotgan avlod bilan oldingi avlod vakllari orasidagi milliy fazilatlar, milliy qadriyatlar, milliy xarakter xususiyatlaridagi o'zgarish va tendensiyalarni kuzatib borish, ular orasidagi bog'liqliklarni doimiy ravishda tekshirib,



ahamiyatga molik jihatlarini tahlil qilib borilganda oilada farzand tarbiyasi, oila baxti, farzandlarning tarbiyali yetuk inson bo'lib yetishidagi ota-onaning sa'y-harakati hisoblanadi. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda kim bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko'radi, bo'lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko'ra kamol topib boradi. Farzandlarimizni ilm-fan va ta'lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o'z o'rnida tarbiya esa milliy fazilatlarga yo'g'rilgan milliy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasida esa milliy tarbiya katta ahamiyatga ega. Eng muhimi, farzandlarimiz tarbiyasiga etiborli bo'lish mezonini kichik yoshdan boshlab oilada bolalarimizni ma'nan va ruhan sog'lom bo'lib ulg'ayishlarida, milliy –ma'naviy qadriyatlar asosida ongli kamol topishlarida, kelajakda jahon talablariga javob bera oladigan, jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'sha oladigan, yo'naltiruvchi va harakatlantiruvchi, savob ishlar, bunyodkorlikka safarbar qiluvchi ezgu g'oya, orzu-maqсад va ijobiy namunalar majmuini ifodalovchi barkamol shaxs bo'lib o'sib unishlarini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soifnazarova F. Oila – ma'naviyat maskani. // Guliston, 1999, 5-son, 8–9-betlar.
2. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – T.: O'zbekiston, 1998. – 236 b.
3. Ulug'bek ma'naviyati va yoshlar tarbiyasi. – Farg'ona, 1994.
4. Xolmatova M. O'zbek oilasi fazilatlari. // Xalq ta'limi, 1998, 1-son, 51-bet.
5. Yo'ldoshev F., Haydarov O. Ma'naviy meros va yoshlar tarbiyasi. // Guliston, 1999, 5-son, 5–6-betlar.